

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

DUSHATOVA SHOXSANAM BAXTIYOR QIZI

EVFEMIZMLARNING LISONIY VA LINGVOMADANIY TADQIQI
(ingliz, rus va o‘zbek tillari misolida)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2025

UO‘K: 81’27:811.111+811.161.1 811.512.133

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in philological
sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Dushatova Shoxsanam Baxtiyor qizi

Evfemizmlarning lisoniy va lingvomadaniy tadqiqi (ingliz, rus va o‘zbek tillari
misolida).....3

Dushatova Shokhsanam Bakhtiyor kizi

Linguistic and linguocultural study of euphemisms (based on English, Russian, and
Uzbek Languages).....25

Душатова Шохсанам Бахтиёр кизи

Лингвистическое и лингвокультурологическое исследование эвфемизмов (на
примере английского, русского и узбекского языков).....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....54

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

DUSHATOVA SHOXSANAM BAXTIYOR QIZI

EVFEMIZMLARNING LISONIY VA LINGVOMADANIY TADQIQI
(ingliz, rus va o‘zbek tillari misolida)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Fil5313 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtofererati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sayti (www.fdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot ta'lim portal (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xoshimova Nargis Abdullayevna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Sodiqov Zoxid Yakubjanovich
filologiya fanlari doktori, professor

Gulyamova Shaxnoza Qahramonovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat chet tillari instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil « 6 » sentabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahar, Burhoniddin Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz.

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (561 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-44-94.


Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 22 » avgust kuni tarqatildi.

(2025-yil « 22 » avgust dagi 42 raqamli reestr bayonnomasi).




G.Z. Rozikova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor


M.T. Abdupattoyev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
filol.f.d., professor


A.G. Sabirdinov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida evfemizmlar muhim ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida e'tirof etilib, til, inson va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tadqiq qilish alohida e'tiborga loyiq masala sifatida qaralmoqda. Evfemizmlar so'zlashuv tilidan boshlab adabiy tilning poetik va tantanali qatlamigacha faol qo'llaniladigan til birliklari bo'lib, ularning funksional-xususiy jihatlari turlicha namoyon bo'ladi. Jamiyatdagi tushunchalarning tabulashuvi natijasida yuzaga keladigan evfemizmlar ijtimoiy taraqqiyot jarayonlari bilan birga o'zgarib, ularning qo'llanish imkoniyatlari kengayadi va lingvistik tadqiqotlar doirasida lingvomadaniy tahlil ehtiyoji kuchayadi. Shu nuqtayi nazardan, til va madaniyat o'zaro bog'liqligida evfemizmlar tasniflarini yaratish, ularni yaxlit tizim sifatida shakllantirish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida evfemizmlarning lisoniy va lingvomadaniy tadqiqot doirasi kengayib, ularning milliy-madaniy qadriyatlarni aks ettirishdagi o'zni dolzarb ilmiy masala sifatida qaralmoqda. Har bir xalq madaniyatiga xos evfemik birliklar jamiyatdagi qadriyatlar tizimini aks ettirib, til orqali madaniy tafakkurni namoyon etadi. Evfemizmlarning semantik, struktur va leksik jihatdan tadqiq qilinishi ularning lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishda tizimli yondashuvni talab etadi. Turli tillarda evfemizmlarni qiyosiy o'rganish esa milliy tafakkur, ijtimoiy hayot va tarixiy jarayonlarning o'ziga xos jihatlarni yoritishga xizmat qiladi. Shu bois evfemizmlarni lisoniy va lingvomadaniy aspektlarda o'rganishga qaratilgan mazkur ishimiz ilmiy tadqiqotlarning ko'payishida muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar o'zbek tilining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois o'zbek tilining boshqa tillar bilan qiyosiy tadqiq qilinishi tilshunoslikda hali o'rganilmagan jihatlarni ochib berishga imkon yaratadi. Zero, "Davlat tili taraqqiyotini boshqa millat vakillarining tili va madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liq holda ko'ramiz¹", degan yondashuv esa til va madaniyatning o'zaro chambarchas bog'liqligini yana bir bor tasdiqlaydi. Mamlakatimizda chet tillarini o'rgatish tizimini takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarida raqobatbardosh, har jihatdan mukammal kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Binobarin, bugungi kunda har bir sohada mavjud bo'lgan dolzarb masalalarni ilm-fan yutuqlari asosida hal etish katta ahamiyatga ega. Buning uchun "nufuzli xorijiy universitetlar, ilmiy va innovatsion markazlar bilan aloqalarni kuchaytirish, ular bilan kadrlar tayyorlash bo'yicha hamkorlikni yanada kengaytirish zarur"². Evfemizmlar madaniyat ko'zgusi sifatida jamiyatda mavjud axloqiy me'yorlarni, ijtimoiy tendensiyalarni va inson tafakkurining turli millatlar doirasida qanday farqlanishini aks ettiradi. Evfemizmlarning tizimli tadqiqi ularning lingvistik va lingvomadaniy xususiyatlarini ochib beradi. Ilm-fan va innovatsiya rivojlangan bir

¹Mirziyoyev Sh.M. O'zbek tili – millat ma'naviyatining mustahkam poydevori. <https://president.uz>. – O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan (murojaat sanasi: 10.10.2022).

²Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/5774> – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti (murojaat sanasi: 10.10.2022).

pallada nafaqat xorijiy tillarni, balki shu tilda soʻzlashuvchilar madaniyatini bilish muhim ahamiyatga ega. Bu esa tillarni qiyosiy tahlil qilish hamda chuqurroq izlanish olib borish zaruriyatini tugʻdiradi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF–6084-son “Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish toʻgʻrisida”gi, 2022-yil 10-fevraldagi PF–60-sonli “Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi farmonlari; 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “Oʻzbekiston Respublikasida xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarori, 2021-yil 6-may kuni chet tillarini oʻqitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yigʻilishida ilgari surgan fikrlari, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 34-son “Xorijiy tillarni oʻrganishni takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa meʼyoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirish, innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida evfemizm hodisasining oʻrganilishi koʻp asrlik tarixga ega boʻlib, jahon va oʻzbek tilshunosligida bu mavzuga doir bir qator ishlar amalga oshirilgan. Ingliz tadqiqotchilaridan J.Lakof, G.Lich, D.Enrayt, K.Alan, K.Berrij, D.Kameron, D.Kristal, H.Rauson, L.Trass, J.Hyuz, S.Pinker, J.Grin,³ kabilar bu mavzuda ish olib borgan boʻlib, H.Rauson evfemizmlarni lingvistik va ijtimoiy hodisa sifatida oʻrgangan boʻlsa, J.Lakof evfemizmlarning nafaqat lingvistik, balki psixologik ahamiyatini ham tadqiq qilgan. K.Alan evfemizmlarning nafaqat leksik tizimda, balki kontekst darajasida ham muhim oʻrin tutishini taʼkidlaydi. D.Kameronning fikricha, evfemizmlar nafaqat muloqotni yumshatish, balki jamiyatda tenglik munosabatlarini aks ettirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. S.Pinker koʻp tadqiqotlarda mavjud boʻlmagan yoki eʼtibordan chetda qolgan evfemizmlarning doimiy yangilanish jarayonini, yaʼni “euphemistic treadmill” hodisasini psixolingvistika asosida tahlil qiladi. Rus olimlaridan B.Larin, R.Budagov, A.Reformatskiy, L.Bulaxovskiy, V.Donskoy, L.Artyushkina, T.Bushuyeva,

³Lakoff G. The Logic of Politeness; or, Minding Your P's and Q's. – Chicago: University of Chicago Press, 1973; Leech G.N. Principle of Pragmatics. – London: Longman Publishing Group, 1983; Enright D.J. Fair of Speech, the Use of Euphemism. – Oxford: Oxford University Press, 1986; Allan K. and Burrige K. Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon. – New York: Oxford University Press, 1991; Cameron D. Verbal Hygiene. – London: Routledge, 1995; Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1995; Rawson H.A. Dictionary of Euphemisms and Other Doubletalk. – Edison N.J.: Castle Books, 2002; Truss L. Talk to the Hand: The Utter Bloody Rudeness of Everyday Life. – London: Profile Books, 2005; Hughes G. An Encyclopedia of Swearing: The Social History of Oaths, Profanity, Foul Language, and Ethnic Slurs in the English-speaking World. – Armonk, NY: M.E. Sharpe, 2006; Pinker S. The Stuff of Thought: Language as a Window into Human Nature. – New York: Viking, 2007; Green J. Green's Dictionary of Slang. – Edinburgh: Chambers, 2010.

A.Katsev, D.Zelenin, Y.Senichkina⁴ kabilar evfemizmlar bo'yicha tadqiqot olib borganlar. Ularning izlanishlarida evfemizmlarga ikki xil yondashuv mavjudligi kuzatiladi. Birinchi yondashuvda mazkur atama tor ma'noda talqin qilinib, evfemizmlar taqiqlangan so'zlarning o'rnini bosuvchi so'z yoki ibora sifatida tushuniladi. Mazkur yo'nalish vakillari sifatida R.Budagov, B.Larin, A.Reformatskiy va V.Donskoyni ko'rsatish mumkin. Jumladan, V.Donskoy evfemizmlar tabular bilan sabab-natija munosabatida paydo bo'ladi, deb hisoblaydi. Uning fikricha, agar tabular mavjud bo'lmaganida, ularning lingvistik antipodlari sifatida evfemizmlarning paydo bo'lishiga ehtiyoj qolmas edi. Ikkinchi guruh qarashlar evfemizm atamasini keng ma'noda ko'rib chiquvchi tilshunos olimlarni birlashtiradi. Unga ko'ra, A.Katsev keng ma'nodagi evfemizmi jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlar bilan bog'laydi. O'zbek tilshunosligida N.Ismatullayev, A.Omonturdiyev, X.Qodirova, Sh.Gulyamova, N.G'aybullayeva, A.Tadjibayeva, S.Turdimurodov, A.Qodirov, S.Madrahimov, Z.Rasulov⁵ kabi olimlar bu mavzuda izlanishlar olib borgan bo'lib, ular evfemizmlarning turli xususiyatlari, hosil bo'lish usullari va vujudga kelish sabablariga e'tibor qaratganlar. Xususan, N.Ismatullayev evfemizmlarni madaniyat va tilning uzviy aloqasi sifatida talqin qiladi. A.Omonturdiyev evfemizmlarning uslubiy va kommunikativ ahamiyatiga e'tibor qaratgan bo'lsa, A.Tadjibayeva ingliz tilidagi evfemizmlarning kognitiv va ijtimoiy-madaniy aspektlarini o'rganadi.

Evfemizmlarning lisoniy va lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy-chog'ishtirma aspektda yetarlicha tadqiq qilinmagan. Ularning shakllanish jarayoni, madaniy kontekstdagi o'rni hamda semantik va funksional xususiyatlarini tahlil qilish orqali evfemizmlarning milliy-madaniy tafakkur bilan uzviy bog'liqligini aniqlash muhim masala hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur birliklarning leksikografik yondashuv asosida tizimli tahlili, ularning tuzilishi va qo'llanilish xususiyatlarini yanada kengroq ochib berishga xizmat qiladi.

⁴Larin B.A. Об эвфемизмах // История русского языка и общее языкознание. – М.: Просвещение, 1977; Будагов Р.А. Введение в науку о языке. – М.: Учпедгиз, 1958; Реформатский А.А. Введение в языковедение / под ред. В.А.Виноградова. – М.: Аспект Пресс, 2000; Булаховский Б.А. Введение в языкознание. – М.: Учпедгиз, 1953; Донской В.Ф. О табу и эвфемизмах. Проблемы стилистики, лексикологии и фразеологии. – Иркутск, 1976; Артюшкина Л.В. Семантический аспект эвфемистической лексики в современном английском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2001; Бушуева Т.С. Прагматический аспект эвфемизмов и дисфемизмов в современном английском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Смоленск, 2005; Кацев А.М. Языковое табу и эвфемия: учебное пособие к спецкурсу. – Л.: ЛГПИ, 1988; Зеленин Д.К. Табу слов у народов Восточной Европы и Северной Азии // Сборник музея антропологии и этнографии. – Л., 1929; Сеничкина Е.П. Словарь эвфемизмов русского языка. – М.: Флинта; Наука, 2008.

⁵Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1964; Омонтурдиев А.Ж. Эвфемик воситаларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997; Омонтурдиев А.Ж. Профессионал нутк эвфемикаси (чорвадорлар нутки мисолида): Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009; Қодирова Х.Б. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011; Гулямова Ш.К. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Бухоро, 2020; G'aybullayeva N.I. O'zbek tilida tibbiy evfemizmlar (tibbiy davriy nashrlar asosida): Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – Toshkent, 2019; Таджибаева А.А. Социокультурные и когнитивные аспекты лингвистического исследования эвфемизмов в английском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 2006; Turdimurodov S. O'zbek tilining izohli lug'atlarida evfemik ma'nolar talqini: Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Termiz, 2022; Qodirov A. Evfemizmlar va ularning o'zbek tilidagi funksional xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2019; Madrahimov S. Evfemizmlar va ularning nutq madaniyatidagi o'rni. – Toshkent: Ilmiy maqolalar to'plami, 2018; Rasulov Z. Evfemizmlar va zamonaviy kommunikatsiya. – Andijon: ADU nashriyoti, 2019.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga asosan "Tilshunoslikning dolzarb masalalari" mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz, rus va o'zbek tillaridagi evfemizmlarning lisoniy va lingvomadaniy xususiyatlarini tizimli tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz, rus va o'zbek tilshunosligida evfemizmgga berilgan ta'riflarni tahlil qilish orqali ularning umumiy tavsifini yaratish hamda evfemizmlarni leksik, semantik, lingvomadaniy, struktur jihatlariga ko'ra tasniflash;

tanlangan evfemizmlarni to'plash va qo'llanilish doirasiga ko'ra mavzuiy guruhlariga ajratish;

ingliz, rus va o'zbek tillari evfemik birliklarning tadqiqida ularning ijtimoiy va tarixiy jihatlariga e'tibor qaratish, shuningdek, ma'lum madaniy me'yorlarga ko'ra shakllanishini ko'rsatish;

evfemik birliklarni qiyosiy-chog'ishtirma tahlil asosida tizimlashtirish va ko'p tilli lug'at yaratishda evfemizmlarning lingvomadaniy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ekvivalentlari hamda analoglarini tanlashni ilmiy asoslash;

evfemik birliklarning integral va differensial belgilarini o'rganish orqali ekvivalentlik holatini izohlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz tilida R.Holderning "How Not to Say What You Mean: a Dictionary of Euphemisms" (Ma'noni bilvosita anglatish usullari: Evfemizmlar lug'ati), rus tilida Y.Senichkinaning "Словарь эвфемизмов русского языка" (Rus tilidagi evfemizmlar izohli lug'ati) va o'zbek tilida A.Omonturdiyevning "O'zbek tilining qisqacha evfemik lug'ati"da qayd etilgan, shuningdek, so'zlashuv tilida faollashgan hamda badiiy asarlarda qo'llangan evfemizmlar tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini evfemizmlarning nominativ guruhlarda faollashishi hamda semantik, struktur, uslubiy va lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda lisoniy tasvirlash, leksikografik, qiyosiy-chog'ishtirma, tasniflash va tizimlashtirish, leksikografik saralash, statistik, shakliy metodlardan hamda semantik-izohli tahlildan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz, rus va o'zbek tillarida qo'rquv uyg'otuvchi, yashirin va sirli hisoblangan hamda inson fiziologik holatiga oid tushunchalar va omadsizlikni ifodalovchi evfemik birliklarning nominatsiyalari tarkibida 62 ta mikroguruhni o'z ichiga olgan 17 ta ma'noviy guruh aniqlangan;

tematik guruhlarda evfemizmlarning semantik, struktur, uslubiy va lingvomadaniy xususiyatlari ingliz, rus va o'zbek tillaridagi 1700ga yaqin evfemik birliklar orqali asoslangan;

ingliz, rus va o'zbek tillarida evfemik birliklarning nominatsiyalari bo'yicha iste'mol doirasi jamiyatning ijtimoiy, tarixiy, diniy va madaniy rivojlanishi bilan bog'liqligi *отправляться в лоно Авраама, to strike the Lucifer's fire, asfalasofilinga ketmoq; divorced amicably, не сошлись характерами, yulduzi yulduziga mos kelmadi* kabi evfemik birliklar asosida tahlil qilinib, ularning

signifikativ va majoziy ma'nolari orqali olamning lisoniy manzarasini shakllantirishdagi roli dalillangan;

evfemizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari hisobga olinib, ingliz, rus va o'zbek tillarida *cross the River Jordan* – *оставить бранный мир* – dunyoning qiyinchiligidan qutulmoq, *to kick the bucket* – *сыграть в ящик* – kulala qilmoq, *lady of the night* – *дама полусвета* – tun qirolichasi kabi milliy-madaniy ekvivalentlar tavsiya etilib, evfemizmlarning dinamik xususiyatlari tilning zamonaviy birliklari orqali boyishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

evfemizmlarning semantika, lingvomadaniyatshunoslik va leksikografiya sohalari doirasida muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslangan;

lingvistik va lingvomadaniy nazariyalarni evfemizmlarni o'rganishga, xususan, ularni ingliz, rus va o'zbek tillarida qo'llashga moslashtirish, ushbu nazariyalarni tillardagi evfemizmlarni tahlil qilishda lingvistik va lingvomadaniy asoslarning rivojlanishi va takomillashishiga hissa qo'shishi mumkinligi ilmiy jihatdan dalillangan;

tadqiqot ishining natijalari ingliz, rus va o'zbek tillaridagi mavzular asosida evfemizmlarning ideografik hamda tarjima lug'atlarini tuzish uchun muhim manba hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlilga tortilgan materiallar tilning immanent tabiatidan kelib chiqib xulosalar qilish imkonini berganligi, qo'llangan metodlarning ilmiy asoslanganligi va mukammalligi, lug'aviy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarning ishonchliligi, shuningdek, qo'yilgan masalalarning aniqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, mazkur ish tilshunoslik nazariyasi, semantika, grammatika, leksikologiya, lingvomadaniyatshunoslik va leksikografiya kabi tilshunoslikning yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlarni to'ldiradi va kengaytiradi.

Tadqiqot ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot ishiga doir tahlillar natijasida olingan ilmiy-nazariy xulosalar ta'lim va tarbiya jarayonida tilni amaliy takomillashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot ishning materiallari evfemizmlar bo'yicha lug'atlar takomillashuviga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot ishining natijalari oliy o'quv yurtlarning filologiya, xorijiy til va adabiyoti, chet tillar fakultetlarida tilshunoslik nazariyasi, leksikologiya, lingvomadaniyatshunoslik, tarjima nazariyasi va amaliyoti fanlari bo'yicha maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda, darslik va qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Ingliz, rus va o'zbek tillarida evfemik birliklarning lisoniy va lingvomadaniy tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

ingliz, rus va o'zbek tillarida evfemik birliklarning nominatsiyalari bo'yicha iste'mol doirasi jamiyatning ijtimoiy, tarixiy, diniy va madaniy rivojlanishi bilan bog'liqligi *отправляться в лоно Авраама*, *to strike the Lucifer's fire*, *asfalasofilinga ketmoq*; *divorced amicably*, *не сошлись характерами*, *yulduzi yulduziga mos kelmadi* kabi evfemik birliklar asosida tahlil qilinib, ularning significativ va majoziy ma'nolari orqali olamning lisoniy manzarasini

shakllantirishdagi roli dalillanganligiga oid xulosalardan Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan 2017-2020-yillarga mo‘ljallangan OT-F1-100 raqamli “Imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy-madaniy faoliyatining badiiy-ijodiyot vositalari asosida nazariy va amaliy takomillashuvi” nomli fundamental loyihasi doirasida foydalanilgan (Farg‘ona davlat universitetining 2024-yil 15-noyabrdagi 04/6684-son ma’lumotnomasi). Natijada, turli tillardagi evfemizmlarni lingvomadaniy jihatdan o‘rganish orqali tillar o‘rtasida konstruktiv va madaniy aloqalarni mustahkamlash, ijtimoiy kelishuv va tolerantlik muhitini shakllantirishga xizmat qiluvchi nazariy asoslar yaratilgan bo‘lib, ular loyihaning ijtimoiy samaradorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutgan;

ingliz, rus va o‘zbek tillarida qo‘rquv uyg‘otuvchi tushunchalar, yashirin va sirli hisoblangan tushunchalar, inson fiziologik holatiga oid tushunchalar va omadsizlikni ifodalovchi evfemik birliklarning nominatsiyalari tarkibida 62 ta mikroguruhni o‘z ichiga olgan 17 ta ma’naviy guruhlar aniqlanganligiga oid xulosa va natijalardan Farg‘ona davlat universitetida 2021-2022-yillarga mo‘ljallangan SUZ80021GR3149 “American Drama” xalqaro loyihasining nazariy asosini mustahkamlashda foydalanilgan (Farg‘ona davlat universitetining 2025-yil 7-yanvardagi 04/52-son ma’lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada aniqlangan evfemik birliklar asosida amerika dramalarida ishlatilgan evfemizmlar turlari aniqlanib, ularning lingvomadaniy kontekstdagi vazifalari ochib berilgan;

evfemizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari hisobga olinib, ingliz, rus va o‘zbek tillarida *cross the River Jordan* – *оставить бранный мир* – dunyoning qiyinchiligidan qutulmoq, *to kick the bucket* – *сыграть в ящик* – kulala qilmoq, *lady of the night* – *дама полусвета* – tun qirolichasi kabi milliy-madaniy ekvivalentlar tavsiya etilib, evfemizmlarning dinamik xususiyatlari tilning zamonaviy birliklari orqali boyishiga oid ilmiy xulosalaridan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining XI yo‘nalishida belgilangan “Davlat tilini rivojlantirish, uning targ‘iboti va bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirish” 52-bandi “Davlat tili haqida”gi Qonun ijrosini so‘zsiz ta’minlash, Davlat tilini O‘zbekiston Respublikasida yashayotgan barcha millat va elatlarni birlashtiruvchi umumiy vositaga aylantirish, davlat tiliga hurmat, avvalo, milliy davlatchiligimiz va birdamligimizga nisbatan ehtirom ramzi ekanini yurtdoshlarimiz ongi va qalbiga singdirish” mavzusida targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 5-noyabrdagi 10/146-son ma’lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan tavsiya, taklif va xulosalar evfemizmlarning lisoniy va lingvomadaniy jihatlarini chuqur tadqiq etishga xizmat qilgan bo‘lib, ularni ijtimoiy ongga singdirish, milliy qadriyatlar asosida tushuntirish hamda davlat tilini madaniyatlararo muloqot vositasi sifatida mustahkamlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi. Tadqiqot natijalari jami 11 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanida jamoatchilik muhokamasidan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 20 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan 9 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish

tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda e'lon qilingan bo'lib, ularning 6 tasi respublika ilmiy jurnallarda, 3 tasi esa xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 184 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni shakllantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi **“Evfemizmlarning tilshunoslikda o'rganilishi va nazariy asoslari”** deb nomlanib, *“Evfemizmlar tadqiqining ilmiy asoslari”* nomli birinchi faslda evfemizmlarning tilshunoslikda o'rganilishi keng ko'lamda tahlil qilinib, evfemizm tushunchasiga berilgan izohlar bo'yicha nazariy fikr-mulohazalar yoritilgan.

Evfemizm (grek euphemismos; eu – “yaxshi”, phemi – “gapiraman”) narsa va hodisalarni yumshoq shaklda ifodalash usuli bo'lib, qo'pol, beadab yoki tabu hisoblangan so'z va iboralar o'rnida qo'pol bo'lmagan, botmaydigan so'z iborani qo'llash tushuniladi⁶.

Umumiy tilshunoslikda evfemizmlarni ko'plab olimlar, xususan, ingliz, rus, o'zbek, qozoq, turkman, oltoy, ozarbayjon tilshunos olimlari o'rgangan. Ingliz olimlaridan J.Lakoff, K.Alan, K.Burrij, D.Kameron, D.Kristal, H.Rauson, L.Truss, J.Hyuz, S.Pinker, J.Grin⁷ kabilar; rus olimlaridan N.Amosova, Y.Skrebnev, A.Molotkov, I.Galperin, Y.Karaulov, I.Arnold, I.Potexina, I.Sternin, N.Valgina, L.Krisin,⁸ kabi olimlar; o'zbek tilshunosligida N.Ismatullayev, A.Omonturdiyev, A.Tadjibayeva, X.Qodirova, S.Madrahimov, N.G'aybullayeva, A.Qodirov,

⁶Кодирова Х. Ўзбек тилида эвфемизм ва дисфемизм. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. – Б. 15.

⁷Lakoff G. The Logic of Politeness; or, Minding Your P's and Q's. – Chicago: University of Chicago Press, 1973; Allan K., Burridge K. Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon. – New York: Oxford University Press, 1991; Cameron D. Verbal Hygiene. – London: Routledge, 1995; Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1995; Rawson H.A. Dictionary of Euphemisms and Other Doubletalk. – Edison N.J.: Castle Books, 2002; Truss L. Talk to the Hand: The Utter Bloody Rudeness of Everyday Life. – London: Profile Books, 2005; Hughes G. An Encyclopedia of Swearing: The Social History of Oaths, Profanity, Foul Language, and Ethnic Slurs in the English-speaking World. – Armonk, NY: M.E. Sharpe, 2006; Pinker S. The Stuff of Thought: Language as a Window into Human Nature. – New York: Viking, 2007; Green J. Green's Dictionary of Slang. – London: Chambers Harrap, 2010.

⁸Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Л.: Издательство Ленинградского университета, 1968; Скребнев Ю.М. Основы стилистики английского языка. – М.: Наука, 1976; Молотков А.И. Лексикология современного русского языка. – Л.: Просвещение, 1977; Гальперин И.Р. Стилистика английского языка. – М.: Высшая школа, 1981; Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987; Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. – М.: Просвещение, 1990; Потехина И.А. Евфемизмы в языке и речи. – Воронеж: ВГУ, 2002; Стернин И.А. Коммуникативные аспекты языка. – Воронеж: ВГУ, 2001; Валгина Н.С. Теория текста. – М.: Логос, 2003; Крысин Л.П. Евфемизмы в современном русском языке. – М.: Яз. славян. культуры, 2004.

Z.Rasulov, Sh.Gulyamova⁹ kabi tilshunos olimlar evfemizmlarni turli jihatdan tadqiq qildi va izlanishlar olib bordi.

H.Rausonning fikricha, “evfemizmlar so‘zlovchiga noqulay, o‘rinsiz yoki qo‘pol ko‘ringan so‘z va iboralarning sinonimi sifatida namoyon bo‘ladigan so‘zlardir”¹⁰. Evfemizm salbiy voqelikni ochiq ifodalashdan qochish, uning ta‘sirini yumshatish, axloqiy me‘yorlarni buzishi mumkin bo‘lgan holatlarni yashirish hamda noxush xabarni yumshoqroq shaklda yetkazish uchun foydalaniladi.

Rus tilshunos olimi R.Budagov fikriga ko‘ra, evfemizmlar tabu so‘zlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash tufayli kelib chiqadigan “dahshatli oqibatlar” yoki “yovuz ruh” qasosidan qo‘rqib emas, balki uslubiy vosita sifatida ishlatiladi¹¹.

V.Donskoy, aksincha, evfemizmlar tabular bilan sabab-natija munosabatida bo‘ladi, deb hisoblaydi: “agar tabular bo‘lmaganida, ularning lingvistik antipodlari sifatida evfemizmlarning paydo bo‘lishiga ehtiyoj qolmas edi”¹².

A.Katsev evfemizmnini “jamiyatda qabul qilingan axloqiy me‘yorlar nuqtayi nazaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilinishi mumkin bo‘lmagan narsaning bilvosita nomini yumshatish maqsadiga xizmat qiluvchi element” deya talqin qiladi¹³.

O‘zbek tilshunos olimi A.Hojiyevning fikriga ko‘ra, “evfemizmlar bu noo‘rin birliklarning o‘rniga o‘rinli birliklarning qo‘llanilishidir”¹⁴.

Bobning ikkinchi fasli “*Lingvomadaniyatshunoslikda evfemizmlar tadqiqi*” deb nomlanib, evfemizmlarni madaniyatning ajralmas qismi sifatida tadqiq etish masalalariga bag‘ishlangan.

E.Chayka¹⁵ o‘zining “Language: the Social Mirror” (Til – jamiyatning oynasi) nomli kitobida ta’kidlaganidek, til odamlar o‘rtasidagi muloqot vositasi sifatida ijtimoiy vazifani bajaradi. Bundan tashqari, u til va jamiyat bir-biriga shunchalik bog‘langanki, ularni bir-birisiz aniq tushunish mumkin emasligini aytadi. E.Chayka til – jamiyat madaniyatining ko‘zgusi ekanligini ta’kidlaydi, chunki u jamiyat a’zolarining fikri, umidlari, g‘oyalari, e’tiqodlari, me‘yorlari va his-tuyg‘ularini ifodalaydi. Uning aytishicha, *til* va *madaniyat* o‘rtasidagi munosabatlar turli millatlardan kelgan tilshunoslar uchun doimiy tadqiqot obyekti bo‘lib kelgan.

⁹Исматуллаев Н. Евфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1964; Омонтурдиев А.Ж. Эвфемик воситаларнинг функционал-услугий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997; Таджибаева А.А. Социокультурные и когнитивные аспекты лингвистического исследования эвфемизмов в английском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 2006; Омонтурдиев А.Ж. Профессионал нутқ эвфемикаси (чорвадорлар нутқи мисолида): Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009; Қодирова Х.Б. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011; Madrahimov S. Evfemizmlar va ularning nutq madaniyatidagi o‘rni. – Toshkent: Ilmiy maqolalar to‘plami, 2018; G‘aybullayeva N.I. O‘zbek tilida tibbiy evfemizmlar (tibbiy davriy nashrlar asosida): Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – Toshkent, 2019; Qodirov A. Evfemizmlar va ularning o‘zbek tilidagi funksional xususiyatlari: Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – Toshkent, 2019; Rasulov Z. Evfemizmlar va zamonaviy kommunikatsiya. – Andijon: ADU nashriyoti, 2019; Гулямова Ш.К. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Бухоро, 2020.

¹⁰Rawson H.A. Dictionary of Euphemisms and Other Doubletalk. – Edison N.J.: Castle Books, 2002. – P.32.

¹¹Будагов Р.А. Введение в науку о языке. – М.: Просвещение, 1965. – С.104–110.

¹²Донской В.Ф. О табу и эвфемизмах // Проблемы стилистики, лексикологии и фразеологии. – Иркутск, 1976. – С.175.

¹³Кацев А.М. Языковое табу и эвфемия. – Л., 1988 – С.5.

¹⁴Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг луғати. – Тошкент: Фан, 2002. – Б. 146.

¹⁵Chaika E. Language: the Social Mirror. – Massachusetts: Newbury house publishers, 1982. – P.134.

Til va madaniyat, til va jamiyat munosabatlarini o'rganar ekanmiz, o'zbek tilshunosligida S.Mo'minov, F.Jalolova, S.Yusupova, M.Muminova, N.Komilova, N.Xodjayeva, D.Murotova¹⁶ kabi olimlar tomonidan bajarilgan tadqiqotlarni e'tirof etish maqsadga muvofiqdir.

Lingvomadaniyatshunoslik doirasida antroposentrik yondashuv til – jamiyat – madaniyat – insonning o'zaro aloqadorligini tahlil qilish orqali til xususiyatlarini o'rganishga xizmat qiladi. O'zbek tilshunosligida XXI asrda shakllanayotgan antroposentrik lingvistik yo'nalishlarning asosiy vazifasi esa insonni tilda, tilni esa inson orqali tahlil qilishga yo'naltirishdan iborat. Uning diqqat markazida evfemizmlardan amaliy foydalanish samaradorligini ta'minlashning substansial asoslarda ta'minlash muammolari turadi. "...Davlat tilini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash, bu sohada xalqaro hamkorlikni amalga oshirish" vazifasi madaniy muloqotning asosiy vositasi bo'lgan evfemizmlarni keng qamrovda o'rganishni, ularga xos madaniy jihatlarni chuqurroq tahlil etishni taqozo etmoqda. Shu bois, jadal rivojlanayotgan antroposentrik paradigm doirasida sotsiolingvistika va lingvomadaniyatshunoslik kabi ilg'or ilmiy yo'nalishlarda izlanishlar olib borish dolzarb ilmiy zaruratga aylandi¹⁷.

Bobning *"Tilshunoslikda evfemizmlarning tasnifi masalasi"* nomli faslida evfemik birliklarni tasniflash masalasiga oid nazariy qarashlar atroflicha yoritildi.

Til tabiatini o'rganar ekanmiz, undagi har qaysi til birlik mavzu jihatdan guruhlanishi mumkin va ushbu guruhlanish til tizimini yorqinroq ifodalab berishi tufayli til birliklarning mohiyati yuzaga chiqadi. Shu kabi evfemizmlarni tasnif etish dolzarb hisoblanib, qator olim va tadqiqotchilar tasniflash masalasini o'z ishlarida atroflicha ko'rib chiqqan. Jumladan, ingliz tilshunosligida J.Lakof, K.Allan, K.Berridj, D.Kameron, R.Vaynrib, J.Xyuz¹⁸; rus tilshunosligida L.Krisin, B.Larin, A.Kurkiyev, L.Artyushkina, Y.Toroptseva, V.Moskvin, N.Rebrova¹⁹;

¹⁶Мўминов С. Ўзбек мулоқот ҳулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2000; Jalolova F.N. "O'gay ona" konseptining lingvomadaniy talqini: Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – Farg'ona, 2023; Yusupova S.A. Hurmat kategoriyasining lingvokulturologik tahlili: Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – Farg'ona, 2024; Muminova M.A. O'zbek va ingliz tillaridagi "vaqt" konseptli birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari: Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – Farg'ona, 2024; Komilova N.A. Gender konseptual semantikasi verbalizatorlari va ularning lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy tadqiqi: Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – Farg'ona, 2024; Xodjayeva N.T. Xalqaro va mintaqaviy turizm terminologiyasining lingvomadaniy tadqiqi: Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – Farg'ona, 2024; Murotova D.X. UZR nutqiy aktining lingvokulturologik tadqiqi: Filol. fan. b. fals. dok. ... diss. – Farg'ona, 2024.

¹⁷Гулямова Ш.К. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Бухоро, 2020. – Б.3.

¹⁸Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980; Allan K., Burridge K. *Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon*. – New York: Oxford University Press, 1991; Cameron D. *Verbal Hygiene*. – London: Routledge, 1995; Wajnryb R. *Expletive Deleted: A Good Look at Bad Language*. – New York: Free Press, 2005; Hughes G. *An Encyclopedia of Swearing: The Social History of Oaths, Profanity, Foul Language, and Ethnic Slurs in the English-speaking World*. – Armonk, NY: M.E. Sharpe, 2006.

¹⁹Ларин Б.А. Об эвфемизмах // Учен. запис. Ленингр. ун-та, №301: сер. филол. наук: вып. №60. – Л.: ЛГУ, 1961; Куркиев А.С. О классификации эвфемистических названий в русском языке. Классификация эвфемизмов по порождающим мотивам. – М.: Грозный, 1997; Артюшкина Л.В. Семантический аспект эвфемистической лексики в современном английском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2001; Торопцева Е.Н. Эвфемистические наименования в аспектах языка, истории и культуры: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2003; Крысин Л.П. Эвфемизмы в современном русском языке. – М.: Яз. славян. культуры, 2004; Москвин В.П. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка. – М.: Ленанд, 2007; Реброва Н.Е. Лексикографический статус эвфемизмов как языковых средств репрезентации

o'zbek tilshunosligida N.Ismatullayev, A.Omonturdiyev, Sh.Gulaymova²⁰ evfemizmlarning turli xususiyatlarini e'tiborga olib tasniflagan.

Mazkur tadqiqot ishida evfemizmlarning nominatsiyalar bo'yicha guruhlanishiga e'tibor qaratildi, bunga N.Rebrovaning tasnifi asos bo'ldi²¹. Olima tomonidan taklif etilgan guruhlarini kengaytirgan holda quyidagicha ko'rinishda tavsiya etdik:

- 1) qo'rquv uyg'otuvchi tushunchalar;
- 2) yashirin va sirli tushunchalar;
- 3) inson fiziologik holati bilan bog'liq tushunchalar;
- 4) omadsizlikni ifoda etuvchi birliklar.

Mazkur bobning to'rtinchi fasli "*Evfemizmlarning tizimli tadqiqida leksikografik yondashuvlarning ahamiyati*" deb nomlanib, jahon tilshunosligida evfemizmlar lug'atlari yaratilishiga oid ilmiy qarashlarga nazariy jihatdan yondashildi.

Ingliz, rus va o'zbek tilshunosligida evfemizmlarni maxsus lug'atlar orqali tizimlashtirishga e'tibor qaratilgan. Masalan, ingliz tilshunosligida R.Spirs, E.Bertram, J.Niman, H.Rauson, R.Holder²² tomonidan turli lug'atlar yaratilgan bo'lib, ular evfemizmlarning keng doiradagi ishlatilishini o'rganish imkonini bergan. M.Kovshova, V.Moskvin, Y.Senichkina²³ kabi olimlar rus tilidagi evfemizmlarning semantik va pragmatik jihatlarini tadqiq qilib, ularni lug'at shaklida taqdim etgan. O'zbek tilshunosligida ham evfemizmlarga oid bir nechta lug'atlari mavjud bo'lib, ular A.Omonturdiyev, X.Qodirova, Sh.Gulyamova va N.G'aybullayeva tomonidan tuzilgan²⁴.

Evfemizmlarni leksikografik tasniflash jarayoni ularning doimiy o'zgaruvchan tabiati bilan murakkablashadi. Ayrim evfemizmlar vaqt o'tishi bilan o'z yumshoq ma'nosini yo'qotib, neytral so'zga aylanadi yoki aksincha, yangi evfemizmlar paydo bo'ladi. Masalan, ingliz tilida *lunatic* so'zi ilgari evfemizim

лингвокультурной информации (на материале английского и немецкого языков): Дисс. ... канд. филол. наук. – Ярославль, 2020.

²⁰Исмаилов Н. Евфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1964; Омонтурдыев А.Ж. Эвфемик воситаларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997; Омонтурдыев А.Ж. Профессионал нутқ эвфемикаси (чорвадорлар нутқи мисолида): Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009; Гулямова Ш.К. Ўзбек тили эвфемизмларининг гендер хусусиятлари: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. – Бухоро, 2020.

²¹Реброва Н.Е. Лексикографический статус эвфемизмов как языковых средств репрезентации лингвокультурной информации (на материале английского и немецкого языков): Дисс. ... канд. филол. наук. – Ярославль, 2020. – С.33.

²²Spears R. Slang and euphemism. – New York: David Publishers, 1981; Bertram A. NTC's dictionary of euphemism. – USA: NTC publishing group, 1998; Neaman J.S. Kind words: a thesaurus of euphemisms. – New York: Facts on File, 1990; Rawson H.A. Dictionary of Euphemisms and Other Doubletalk. – Edison N.J.: Castle Books, 2002; Holder R.W. How Not to Say What You Mean: a Dictionary of Euphemisms. – New York: Oxford university press, 2007.

²³Ковшова М.Л. Семантика и прагматика эвфемизмов. Краткий тематический словарь современных русских эвфемизмов. – М.: Гнозис, 2007; Москвин В.П. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка. – М.: Ленанд, 2007; Сеничкина Е.П. Словарь эвфемизмов русского языка. – М.: Флинта, Наука, 2008.

²⁴Омонтурдыев А. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик лугати. – Тошкент: Фан, 2006; Кодирова Х.Б. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011; Гулямова Ш.К. Публицистик эвфемизмларнинг қисқача изоҳли лугати. – Тошкент: Дизайн-пресс, 2013; Гулямова Ш.К. Ўзбек тили гендер ҳосланган эвфемизмлар лугати. – Тошкент: Akademnashr, 2019; G'aybullayeva N.I. O'zbek tili tibbiy evfemizmlarning qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2019.

sifatida ishlatilgan bo'lsa, hozirda u eskirgan va salbiy ma'no kasb etgan. Uning o'rniga *booby*, *certifiable* kabilar keng tarqalgan. Rus tilida esa *старик* so'zi oldin hurmat bilan ishlatilgan bo'lsa, hozirda *пожилые люди* kabi yumshoqroq variantlar qo'llanilmoqda. O'zbek tilida esa *qari* so'zi o'rniga *nuroni*, *otaxon*, *yoshi ulug'* kabi evfemizmlar ishlatilmoqda.

Evfemizmlarning leksikografik qayd etilishi ularni tasniflash va lug'atlarda to'g'ri aks ettirish metodologiyasining muhimligini ko'rsatadi. Evfemizmlarni tematik lug'atlar orqali tadqiq qilish til madaniyatini chuqurroq o'rganish va muloqotda nozik ma'nolarni tushunishga yordam beradi. O'zbek tilida ham so'nggi yillarda evfemistik lug'atlar yaratilgan bo'lsa-da, hali ham uch tilli va ideografik lug'atlar yetarli emas. Shu sababli, evfemizmlarni izchil ravishda lug'atlarda aks ettirish va ularning semantik tahlilini kengaytirish kelajak tadqiqotlari uchun muhim vazifalardan biridir.

Dissertatsiyaning **“Evfemizmlarning mavzuiy guruhlari”** nomli ikkinchi bobi to'rt fasldan iborat bo'lib, har bir fasl evfemizmlarning turli nominatsiyalariga bag'ishlanib, ingliz, rus va o'zbek tillardagi 1700ga yaqin evfemik birliklar tahlilga tortildi. Tematik tasniflash natijalari evfemik birliklarning ideografik lug'ati shakllanishi uchun manba bo'lib, uchta tilning lisoniy va lingvomadaniy xususiyatlari namoyon etildi.

Bobning *“Qo'rquv uyg'otuvchi tushunchalarni ifodalovchi evfemizmlar”* deb nomlangan birinchi faslda o'lim va kasalliklar nominatsiyali guruhlar shakllanib, qator kichik guruhlarni birlashtiradi. Jumladan, o'limni ifoda etuvchi evfemizmlar insonning xudo bilan bog'liqligi (*meet your Maker*, *предстать перед богом*, *ruhini topshirmoq*), bir “dunyo”dan boshqa “dunyo”ga ketish jarayoni (*to go to heaven*, *в иной мир*, *u dunyoga ketmoq*), insonning fiziologik jarayoni bilan bog'liqligi (*asleep*, *at rest*, *закрывать глаза*, *сердце перестало биться*, *испустить последний вздох*, *уйти на покой*, *abadiy uyquga ketdi*, *yuragi to'xtadi*, *so'nggi nafasini olmoq*, *bu dunyo tashvishlaridan dam olmoq*), o'lim sababi, joyi va o'lish jarayoniga oid birliklar (*casualties*, *to kick the bucket*, *to put to the sword* *насть*, *потерять пациента*, *bemorni saqlab qololmaslik*, *boshini sirtmoqqa soldi*), o'limga yaqin holat ifodasi (*on one's last legs*, *knocking on heaven's door*, *висеть на волоске*, *bir oyog'i go'rda*), dafn etish marosimi (*kiss the ground*, *придавать земле*, *tuproqqa topshirmoq*), qabr leksemalarining evfemizmlari (*to come to motels*, *dafn etish joyi*), o'ldirish (*отправить к праотцам*, *u dunyoga junatmoq*) kabi mikroguruhlarda tahlil qilindi.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi evfemizmlar madaniy mentalitetni yorqin aks ettiradi. Masalan, *to kick the bucket* evfemizmi ingliz tilida tarixiy o'lim jazosi bilan bog'liq bo'lsa, uning ruscha varianti *сыграть в ящик* madaniy an'analarga asoslanadi. O'zbek tilida *boshini sirtmoqqa soldi* evfemizmi yuqoridagilarga yaqin ma'no kasb etadi. Ba'zi ifodalar osmon-yer konsepsiyalariga asoslanib, insonning ruhi osmonga, tanasi esa yerga topshirilishini ta'riflaydi va oppozisiyani shakllantiradi. Masalan, yer-osmon oppozisiyasi quyidagi evfemizmlarda ifodalangan: *go to heaven – under the sod*; *отправиться на небеса – предавать земле*; *osmonga ko'tarildi – tuproqqa topshirmoq*. Inson tanasi va ruhi ajratilib ko'rsatilganligi, ruh osmonga ko'tarilishi, tana yerga topshirilishi nazarda tutilib, mazkur evfemik birliklar vujudga keladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “Yashirin va sirli tushunchalarni ifodalovchi evfemizmlar” deb nomlanib, fohishabozlik, poraxoʻrlik, jinoyatchilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, turmush va ajrim kabi mavzularni oʻz ichiga olgan. Jamiyat illatlari guruhidan oʻrin olgan giyoxvandlik tushunchasi giyoh modda (*snow, coke, белый порошок, белое золото, kukun, qora dori*), giyoh qabul qilish joyi (*back room, пыльный угол*), giyohvand shaxs (*pill-head, человек с привычкой, norgilaxoʻr*), giyohga oʻrganish (*on something, под воздействием, kayf surmoq, qaram*), giyoh moddalarning sotuvchisi (*supplier, поставщик, taʼminotchi*) kabi guruhlarda tahlil qilindi. Giyoh modda tushunchasining ifodasida ingliz tilida ijobiy konnotatsiyalar mavjud, yani giyoh moddasi zavqlanish uchun, uni *shirinlik, oppoq qizcha, baxt kukuni* metaforalar orqali tasvirlanishi ijobiy hissiyot uygʻotadi. Rus tilida ushbu tushuncha “oq” rangi bilan assotsiatsiv aloqa orqali ifodalansa, oʻzbek tilida konnotatsiyasi salbiy boʻlib, “qora” rang orqali assotsiatsiv aloqa oʻrnatiladi. Rus kishi mentalitetida giyoh modda boyish vositasi sifatida ham voqelanib, “oltin” leksemasi bilan tavsiflanadi.

Fohishalik guruhi quyidagi mikroguruhlariga boʻlinadi: tun ramzlari bilan bogʻliq evfemizmlar (*lady of the night, ночная бабочка, tungi kapalak, tun qirolichasi*); fohishalikka kasb sifatida murojaat qiluvchi evfemizmlar maʼnaviy jihatini kamaytirib, koʻproq uning amaliy, ishsifat tabiatiga urgʻu beradi: *escort, adult worker, professional companion, call girl, working girl, member of the oldest profession, professional companion, oldest profession, professional woman, freelance; работница древней профессии, девушка по вызову, работница индустрии развлечений; chaqiruvga keladigan qiz*. Yana bir tur evfemizmlar sevgi yoki romantika bilan bogʻliq holda yaratilgan boʻlib, bu orqali munosabatlarning tranzaksion yaʼni savdo xususiyatini yashirishga xizmat qiladi: *lover, inamorata, Lothario; любовная связь, любовник, любовница, любовные отношения, любовные похождения, любовные утехы, любовь, любиться, дама сердца, жрица любви; Layli, tutash*. Oʻylanmay qilingan ish sifatida qarashni ifodalovchi evfemizmlar: *indecenty, light-footed, amateur, guinea-hen; ветреная, ветреница, девушка без предрассудков, булавка в голове; anavtanavilar, yengiltak, dumsiz*. Fohishalik harakati sodir boʻladigan joyni ifoda qiladigan evfemizmlar: *jag house, nanny-house, on the town, panel, parlor house, gentlemen's club, brothel, love hotel; бордель, массажный салон, трактир, ночной клуб, гостиница на час, притон; bordel, tungi klub*. Mazkur guruhdagi evfemizmlarning aksariyati rus tilidan kalka orqali oʻzbek tiliga kirib kelgan. Oʻzbek tilining oʻz qatlamida vujudga kelgan evfemizmlar soni sanoqli, bularga asosan badiiy asarlarda keltirilgan okkazonal evfemizmlarni kiritishga qaror qildik. Okkazonal evfemizmlar individual tarzda boʻlsa ham millat tafakkurining oʻziga xosligini namoyon etib, fohishalikni ifoda etuvchi evfemik birliklarning qaysi holat, voqea, hattoki insonlar bilan assotsiatsiv bogʻlanishini koʻrsatib beradi.

Evfemizmlarning lingvomadaniy xususiyatlarini tahlilga tortar ekanmiz, koʻproq eʼtibor zamonaviy evfemik birliklarga qaratildi. Masalan, fohisha va fohishabozlik guruhiga taalluqli rus va ingliz tillarida teng ekvivalentli evfemizmlar *escort/эскортница* hozirgi davrda paydo boʻlgan yangi kasbni, yaʼni ishbilarmon, biznesmen, siyosatchilarga bazmlarda hamroh boʻlib yurgan ayollarni anglatadi. Oʻzbek tilida ushbu evfemizmlarga muvofiq ekvivalenti topilmagani oʻzbek jamiyatida hali beri bunday illat keng tarqalmaganligidan dalolatdir.

Evfemik birliklarni tematik guruhlarda o'rganish jarayonida har qaysi tilda mavjud bo'lgan birliklar jamlandi. Mazkur tematik tasnifda ayrim guruhlarda evfemik birliklar umuman faollashmagan yoki ularning soni uchta tilda farqlanishi kuzatiladi. Tematik guruhlarda jamlangan evfemik birliklar ideografik lug'atga tayyor manba bo'lib, ingliz, rus va o'zbek tillarida mavzularga asoslangan evfemizmlar lug'atining shakllantirilishiga turtki bo'ladi.

Bobning uchinchi fasli "*O'zbechlik tushunchasini ifodalovchi evfemizmlar*" deb nomlanib, o'zbechlikni ifoda etuvchi guruh evfemizmlari kambag'allik, ishsizlik, kam obro'ga ega bo'lgan kasblarni ifodalovchi tushunchalar o'z ichiga olgan. Kambag'allikni ifodalovchi evfemizmlar quyidagi mikroguruhlardan iborat: iqtisodiy va ijtimoiy tengsizlik (*economically disadvantaged, необеспеченный, iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan*); moliyaviy qiyinchilik va resurslarning yetishmasligi (*cash flow problem, виртуальная зарплата, daromadi past*); tejamkorlik va sarf-harajatni nazorat qilish (*cost-conscious, уметь вести хозяйство, qanoatli*); tejamkorlikning salbiy talqini (*tight-fisted, тугой на деньги, yoningni kavlasang og'zini ochadi*); madaniy o'ziga xos evfemizmlar (*banana republic, жить на пище святого Антония, non topishi oson emas*). Turli nominatsiyali mikroguruhlarda evfemik birliklar faollashar ekan, ularning lingvomadaniy jihatlariga e'tibor berish lozim. Yani o'zbek xalqi yaxshi, to'q hayotni non bilan assotsiatsiv tarzda bog'laydilar. Bu esa o'zbek xalqining kahatchilik davrlarida bir burda non topishi qiyinligiga taqalib, moddiy qiyinchilikni *non topish oson emas* evfemik birligini keltiradi. Rus xalqi avliyo Antoniyni nochor ahvolda yashaganligi, ingliz xalqi ongiga esa nochorlik ramzi faqat banan mahsulotida tirikchilik qilib yashaydigan davlatlar kelishi ushbu tushunchaga uchta xalq turlicha yondashganligi bevosita tarixiy voqealar bilan bog'lanishini namoyon etadi.

O'zbechlik nominatsiyasidagi guruhdan ishsizlikni ifoda etuvchi evfemik birliklar ham o'rin olgan bo'lib, ular ishsizlik vaqtinchalik holat sifatida (*between jobs, временно неработающий, vaqtinchalik dam olishda*); ishdan bo'shatilish jarayoni (*clear your desk, освобожден от работы, chormoq*); ishsizlik yangi imkoniyat sifatida (*seeking new opportunities, переосмысливает карьерные перспективы, yangi boshqichga o'tmoqda*); ishsizlik ijodiy va shaxsiy rivojlanish jarayoni sifatida (*freelancing, занимается личностным развитием, ochiq havoga direktor*); ishsizlik sabablari (*downsizing, оптимизация персонала, qisqarish*) kabi guruhlardan tashkil topgan. Kam e'tibor yoki past obro'li kasblarni ifodalovchi evfemizmlar sanitariya va tozalash bilan bog'liq kasblar (*sanitation engineer, ассенизатор, obodonlashtirish hodimlari*); uy-rozg'or ishlari bilan bog'liq kasblar (*domestic engineer, домашний инженер, xonadon bekasi*); savdo va mijozlarga xizmat ko'rsatish (*beauty consultant, продавец-консультант, savdo maslahatchisi*) kabi guruhlarda tahlilga tortilgan.

Tematik guruhlar tarkibidagi evfemik birliklar uchta tilda qiyoslanib, ularning lisoniy va lingvomadaniy xususiyatlari namoyon bo'ldi. Shuning uchun evfemik birliklarni tematik guruhlarda o'rganish alohida e'tiborga ega bo'lib, til birliklarini tizimli shakllantirishga ko'mak berib, ularni semantik jihatdan o'rganishga ham imkon yaratadi. Izlanishlar davomida 4 yo'nalishga ajratilgan 17 ta nominatsiyali guruhlariga o'z ichida yanada kichik guruhlariga ajratilib, 62 ta mikroguruh tashkil

etildi. Bu esa tilning tizimli shakllanganligidan dalolat bo'lib, turli tillarni qiyoslab va taqqoslab o'rganishga zamin yaratadi.

Bobning 4-fasli *“Inson fiziologik holati bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi evfemizmlar”* deb nomlangan. Insonning fiziologik holati bilan bog‘liq tushunchalarni ifoda etadigan evfemizmlar alohida diqqatga sazovor, chunki ular ko‘pincha jamiyatda uyatli, noqulay yoki muhokama qilishga mos kelmaydigan holatlarni yashirin ifoda etishga xizmat qiladi. L.P.Krisinning tasnifiga ko‘ra, fiziologik holatlar bilan bog‘liq evfemizmlar insonning tashqi ko‘rinishi va reproduktiv organlarini qamrab oladi²⁵. Ammo zamonaviy tahlillar bu tasnifni kengaytirishni talab qiladi, chunki fiziologik holatlarni ifoda etuvchi evfemizmlar orasida yosh, semizlik, homiladorlik va nogironlik kabi tushunchalar ham muhim o‘rin tutadi. Mazkur evfemizmlar fiziologik holatlarni ifoda etishda nafaqat lingvistik ehtiyojlarni qondiradi, balki jamiyatdagi madaniy, axloqiy va hissiy cheklovlarni saqlashga ham yordam beradi. Bunday iboralar jamiyatda inson munosabatlarini osonlashtirish va muloqotni muloyimroq qilishga xizmat qiladi. Yoshga oid evfemizmlar (*senior citizen, golden years, люди старшего возраста, возраст осени, yoshi ulug‘, oqsoqol*); semizlikni ifodalovchi evfemizmlar (*full figure, big-boned, chubby, пышный, сдобненький, брюшко, sog‘lom, do‘mboqcha, ko‘hli*); nogironlikni ifodalovchi evfemizmlar (*differently-abled, physically challenged, особенные дети, иные физические возможности, maxsus qobiliyatli shaxslar, ko‘rish qobiliyati pasaygan*); homiladorlik bilan bog‘liq evfemizmlar: jismoniy va fiziologik o‘zgarish (*full in the belly, family way, округлился живот, заиметь ребенка, og‘ir oyog, oy-kuni yaqin*) mikroguruhlarda tahlil qilindi. Evfemik birliklarning uchta tilda qiyosiy tadqiqida xalqlarning milliy-madaniy xususiyatlari farqlanishi, majoziy ma’no turlicha yuzaga kelishi aynan milliy mentalitet bilan bog‘liqligi ko‘zga tashlanadi. Jumladan, rus xalqiga xos kinoyaviylik, ingliz xalqiga xos fikrni majozan va implitsit ifodalash, o‘zbek xalqiga xos fikrini implitsit tarzda, shu bilan birga, qo‘pollik tusi bilan ifodalash qator evfemik birliklarda namoyon bo‘ldi: *functionally diverse, adapted living, assistive needs, люди с индивидуальными особенностями, люди с особыми талантами, люди с уникальными способностями, люди с альтернативными возможностями, eshitmaydi, qulog‘i og‘ir, qulog‘i tang, qulog‘i bitgan, oqsoq, bir oyog‘i kaltaroq, oyog‘idan ayrilgan, gung*. Shu bois aytishimiz kerakki, o‘zbek tilida ko‘p holatda disfemik evfemizm vujudga keldi, ya’ni evfemizm birligida qo‘pol ma’no ijobiylashmasdan, balki neytrallashsa, disfemik evfemizm deb yuritiladi.

Tematik guruhlarda jamlangan evfemik birliklar ideografik lug‘atlariga tayyor manba bo‘lib, ingliz, rus va o‘zbek tillarida evfemizmlar lug‘atining shakllantirilishiga turtki bo‘ldi (1-jadval).

²⁵Крисин Л.П. Современные проблемы эвфемии: Семантика и функционирование. – М.: Наука, 1994. – С.45.

Yosh ifodasini bildiruvchi evfemizmlar

Euphemisms denoting the age	Эвфемизмы, выражающие возраст	Yosh ifodasini bildiruvchi evfemizmlar
Age as the expression of respect and honour	Возраст как выражение почёта и уважения	Yosh hurmat va obro‘ ifodasi sifatida
<i>senior citizen, honourable age, seasoned, experienced, mature, elder statesman</i>	<i>люди почтенного возраста, преклонного возраста, уважаемого возраста, с опытом</i>	<i>yoshi ulug‘, hurmatli yoshda</i>
Old age as a natural process	Старость как природный процесс	Qarilik tabiiy jarayon sifatida
<i>golden years, twilight years, Roman spring, sunset years</i>	<i>золотая осень, возраст осени, золотой возраст</i>	<i>oqsoqol, sochiga oq oralagan, oltin kuz davri</i>
Expression of longer life	Выражение долгой жизни	Uzoq umr ifodasi
<i>make old bones, in the prime of life, longer-living, a bit overripe</i>	<i>век Мафусаила, пожилого возраста</i>	<i>yoshi katta, yoshi ulug‘, ko‘pni ko‘rgan, yoshini yashagan, bir-ikki ko‘ylak ko‘proq yirtgan</i>
Showing old age as younger one	Представление старости как более молодого возраста	Keksalikni kamaytirib ko‘rsatish ifodasi
<i>young at heart, well-preserved, a person of certain age, still full of life</i>	<i>юная, возраст не даёт знать, в самом расцвете сил, молод душой</i>	<i>ko‘ngli yosh, (yosh) yigitdek/qizdek ko‘rinadi.</i>

Insonning fiziologik holati bilan bog‘liq evfemizmlar til va madaniyatning ijodkorlik qirralarini ochib beradi. Mazkur iboralar universal mavzularni yoritish bilan birga, har bir tilning o‘ziga xos madaniyati va jamiyat psixologiyasini aks ettiradi. Bunday evfemizmlarni o‘rganish orqali xalqning til va madaniy tafakkurini yanada chuqurroq anglash mumkin.

Tadqiqot ishning **“Evfemizmlarning lingvomadaniy yondashuvida ekvivalentlik, struktur-semantik va funksional tadqiqi”** nomli uchinchi bobi 4 fasldan iborat bo‘lib, unda evfemizmlarning lisoniy va lingvomadaniy xususiyatlari masalasiga oid tahlillar o‘rin olgan. *“Evfemizmlarda ekvivalentlik: umumiy va differensial belgilar”* nomli birinchi faslida evfemizmlarning qiyoslanayotgan tillardagi ekvivalentlik holati tadqiq etildi.

Tadqiqotimizda evfemizmlarning ekvivalentlik xususiyatlarini aniqlashda ularning lingvomadaniy jihatdan tahliliga e‘tibor qaratib, evfemizmlarning umumiy va differensial belgilarini yuzaga chiqardik. Evfemizmlarning leksikografik tadqiqida ingliz tilidagi Oksford lug‘ati²⁶, *“How Not to Say What You Mean: a dictionary of euphemisms”*²⁷ (Ma‘noni bilvosita anglatish usullari:

²⁶Oxford University Press. (n.d.). In Oxford English Dictionary. – URL: <https://www.oed.com/view/Entry/176741> (murojaat sanasi: 30.10.2024).

²⁷Holder R.W. How Not to Say What You Mean: a Dictionary of Euphemisms. – Oxford: Oxford University Press, 2007.

Evfemizmlar lug‘ati), rus tilidagi “Словарь эвфемизмов русского языка”²⁸ (Rus tilidagi evfemizmlar izohli lug‘ati) evfemistik lug‘atlaridan olingan evfemizmlar bilan bir qatorda ingliz va rus asarlarida keltirilgan evfemik birliklar ham qo‘shildi, chunki madaniy konnotasiyalari bilan ajralib turgan evfemik birliklar lug‘atni boyitadi. O‘zbek tilida esa biz A.Omonturdiyevning “O‘zbek tilining qisqacha evfemik lug‘ati”²⁹dan, umumiste‘mol lug‘atlaridan, o‘zbek tilidagi izohli lug‘atlar, shuningdek, onlayn sayt lug‘atlaridan³⁰, so‘zlashuv tilida hamda badiiy asarlarda qo‘llangan evfemik birliklardan foydalandik va keyingi ilmiy izlanishlar uchun asqotadigan uch tilli evfemizmlar lug‘atini tuzishga manba yaratdik.

Tadqiqotda 1700ga yaqin evfemik birliklar jamlandi. Ularning aksariyati uchta millat, ya‘ni ingliz, rus va o‘zbek millatlari haqida maxsus madaniy ma‘lumot berib, ularning o‘ziga xosligi bilan birga o‘xshashligini ko‘rsatib berdi.

Evfemik birliklarning ekvivalentlik jihatini aniqlash jarayonida ularning lingvomadaniy xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘ldi. Xususan, evfemik birliklarning ekvivalenti uchta tilda ham to‘liq variantlari bilan ifodalanganda, millat madaniyatiga xos farqlar kuzatilmadi. Masalan, qo‘rquv uyg‘otuvchi tushunchalarni ifodalovchi evfemizmlar guruhiga kiruvchi o‘lim mikroguruhiga oid evfemik birliklarni ko‘rib chiqamiz: *no longer with us* – *больше не с нами* – *endi biz bilan emas*; *lost* – *потеряли* – *yo‘qotdik*; *left us* – *оставил нас* – *bizni tark etdi*. Ushbu evfemik birliklar uchala tilda ham qo‘llanishi kuzatilgani sababli, ular to‘liq ekvivalentli evfemizmlar qatoriga kiritiladi. Lekin aynan bitta tilga muvofiq evfemik birliklar mavjudki, ularni kalkalash usuli bilan tarjima qilib boshqa tilga olib kirilishi bilan evfemizmlarning mohiyati to‘liq anglanmaydi. Bu holatda evfemik birlik parafrastik xususiyatiga ega bo‘lib, so‘zma-so‘z tarjimada o‘z mohiyatini yo‘qotadi. Inglizlar xristian diniga mansub bo‘lib, aksariyat evfemik birliklar Injil va Bibliyadan olingan. Masalan, *cross the River Jordan* evfemik birligi Injildan kelib chiqib, yahudiylarning Misrdagi qullikdan qutulishni nazarda tutadi. Qullarning Yordan daryosidan kechib o‘tganligi bu ozodlikka chiqqanligini anglatgan. Mazkur evfemik birlik parafrastik tarzda namoyon bo‘lib, ushbu olamning qiyinchiliklaridan ozod bo‘ldi, qutuldi ma‘nosini anglatadi. Shuning uchun rus tilidagi variantiga *оставить бранный мир*, o‘zbek tili variantiga esa *dunyo tashvishlaridan qutulmoq* ekvivalentlari taklif etildi.

Bobning “*Evfemizmlarning struktur-semantik tahlili*” deb nomlangan ikkinchi faslida evfemik birliklarning komponentlar soni hamda ingliz, rus va o‘zbek tillarning struktur-semantik tizimi tahlil etildi. Bitta komponentli yoki alohida bitta leksema orqali shakllangan evfemik birliklar ot, fe‘l, sifat yoki ravish so‘z turkumlariga taalluqlidir. Masalan, rus tilida o‘lim ifodasi *коса*, *Кондрашка*, *кончина*, *заснувший*, *костлявая*, *безногая*, *курносая*; o‘lmoq ifodasi – *пасть*, *полечь*, *угасать*; o‘zbek tilida o‘lim ifodasi – *Azroil*; giyohvand shaxs ifodasi ingliz tilida – *freak*, *dope-friend*, o‘zbek tilida – *норгилахўр*; fohisha ifodasi rus tilida – *путана*, *интердевочка*, *блудница*, *кокотка*, ingliz tilida – *tart*, *tartlet*, *tootsie*, *tramp*, o‘zbek tilida – *barishnyaxon* kabi ifoda qilinadi. Ingliz va o‘zbek tillarida bitta komponentli evfemik birliklarning aksariyati ot turkumli so‘zlarga

²⁸Сеничкина Е.П. Словарь эвфемизмов русского языка. – М.: Флинта; Наука, 2008.

²⁹Омонтурдиев А. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луг‘ати. – Тошкент: Фан, 2006.

³⁰Izoh.uz – O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – 2014-2024. – URL: <https://izoh.uz/> (murojaat sanasi: 10.10.2024).

taalluqlidir, rus tilida bunday evfemik birliklarni fe'l va sifatlar tashkil qiladi. Bitta komponentli evfemik birliklar qatorida ravish turkumli so'zlar ham uchraydi, lekin ularning soni chegaralangan: *asleep, недоброкачественно, летально*.

Ko'p komponentli yoki yaxlit birikma sifatida shakllangan evfemik birliklarning aksariyati uchta tilda substantiv birliklarni tashkil qiladi, ya'ni ot so'z turkumi orqali shakllanganligini ifodalaydi: ingliz tilida: *the valley of shadows, the land of forgetfulness, devil disease, uncle Dick, women's problem, big jump*; rus tilida: *пятый акт, последний час, вечный покой, медвежья болезнь, Ангел смерти*; o'zbek tilida: *ruhini topshirdi, xotin-qizlarqa serishtaha, abadiy uyqu*.

Evfemik birliklar shakllanishida predlogli birikmalar (*all over with, at rest*), pronominalizatsiya (*this, there, так, там, andaqa, anavi*), morfologik evfemizmlar (*childish, полненький, заснувший, do'tmoqcha, do'ndiqcha*), abbreviaturali evfemizmlar (*PWA, big C, слово на букву Б*), juft so'zli evfemizmlar (*so-so, hanky-panky, nitty-gritty; шуры-муры, тили-тили; u-bu*), konversiya, kompozitsiya so'z yasalish usulida shakllangan evfemizmlar tillarning struktur-semantik jihatdan farqlanishini namoyon etadi.

Bobning "Evfemizmlarning ko'chim turlaridagi ifodasi" deb nomlangan faslida evfemizmlar metafora, metonimiya, metalepsis, litota, meyozis, eponim kabi uslubiy vositalar orqali namoyon bo'lishi bevosita lingvomadaniy masalalar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Evfemik birliklarni lingvomadaniy jihatdan talqin etish ingliz, rus va o'zbek millatlarning dunyoqarashi, urf-odatlarini, axloqiy me'yorlarini namoyon etiladi.

Evfemizm metafora orqali vujudga kelganligi *Елисейские поля* misolidan ko'rish mumkin. Mazkur evfemik birlik jannatni ifodalaydi. Bu misol ingliz tilida ham uchraydi, Bibliyadan kelib chiqqan. Ingliz va rus xalqarida evfemik birliklarning bir qismi diniy manba hamda qadimiy yunon afsonalardan kelib chiqqanligi bilan ikki millatda o'xshashlik hosil qiladi: *отправиться в лоно Авраама, stoke Lucifer's fire, cross the Styx*. Lekin o'zbek tilida diniy manbalardan kelib chiqqan evfemik birliklar uchramadi. Evfemizmlar metaforik ko'chimi orqali "o'lgandan keyin boriladigan joy" ma'nosida hosil bo'lishi mumkin, masalan: *the valley of shadows, land of forgetfulness, Елисейские поля*.

Yashirin, sirli, jamiyatda odobsiz hisoblangan tushunchalarni ifodalovchi evfemizmlarning tematik guruhiga kiruvchi yosh semasi ostida faollashgan quyidagi evfemik birliklar metonimiyaga misol bo'ladi: ingliz tilida *silver hair/kumush soch* insonning yoshi o'tgan sari sodir bo'ladigan fiziologik o'zgarish natijasida sochi oqarganligini ko'rsatib, metonimik evfemizmni vujudga keltiradi. Litota usuli orqali shakllangan evfemizmlarga ingliz tilida *non-white, undocumented, not the sharpest tool in the shed, less fortunate*; rus tilida *не в трудовом процессе, небогатый*; o'zbek tilida *unchalik aqlli emas*. Meyozis uslubiy vositasi so'z ma'nosidagi harakat, holat, jarayon, belgining kuchini kamaytirishdan iborat bo'lib, uchta tilda har bir tilning o'ziga xos madaniy va til xususiyatlaridan kelib chiqib qator evfemik birliklarni yuzaga keltirdi. Jumladan, *slow wit – слабоумный – esi past*. Eponimlar tarixiy yoki madaniy jihatdan ahamiyatli shaxslarning nomlariga asoslangan bo'lib, ularning dastlabki ma'nolari keyinchalik umumiyashtirilgan. Evfemizmlar shakllanishida eponimlar shaxs nomi orqali ijtimoiy axloqiy me'yorlarga moslashtirilgan yumshoq ma'no yaratadi. Ingliz tilida *Laisa, Magdalena*; rus va ingliz tillarida *Alfons* – ayol qaramog'idagi

erkak, o'zbek tilida *Layli* – fohisha ayol, Majnun – hissiy jihatdan beqaror inson roli uchun eponim bo'lib kelmoqda. Ammo hozirgi o'zbek tilida Alfons evfemik birligi ham zamonaviy badiiy filmlarda kuzatiladi. Metalepsis vositasi orqali voqelangan evfemizmda bitta komponenti to'g'ri ma'noda, ikkinchisi ko'chma ma'noda keladi. Misol uchun, metalepsis uslubiy vositasi ingliz tilidagi *to go to the motel, to go to the hotel, to get the room* kabi iboralaridagi *qabr* leksemasi ko'chma ma'noda ifodalanib, *mehmonxona, xona* leksemalari bilan almashtirilmoqda.

Bobning "*Evfemizmlarning funksional-uslubiy tahlilida lingvomadaniy xususiyatlarining ifodasi*" deb nomlangan to'rtinchi faslida oddiy adabiy qatlamda uchraydigan evfemik birliklar tahlilga tortildi, jumladan, V. Shekspir asaridan *leave this world/покинуть сей мир/ushbu dunyoni tark etmoq* iborasi o'limni poetik va hissiy jihatdan boyitish uchun hissa qo'shgan, o'zbek adabiyotida A. Oripovning she'rlarida *hayotning ohirgi bekati* kabi iboralar ko'p uchraydi.

Tantanali evfemizmlar, odatda, siyosiy, diniy va ijtimoiy jihatdan ahamiyatga ega bo'lgan nutqlarda qo'llanilib, qiyin yoki noqulay masalalarni muloyimroq ifodalash uchun ishlatiladi. Ular nutqni hissiy jihatdan ta'sirchanroq qilish, tilning ohangini ko'tarinki qilish va ba'zan, noxush ma'nolarni yashirish uchun mo'ljallangan. Misol uchun ingliz tili siyosiy nutqlarida *enhanced interrogation/kuchaytirilgan tergov, pre-owned/legalik qilingan (eski)* kabi evfemizmlarni uchratish mumkin. Rus tilida *меры по сокращению численности/xodimlar sonini qisqartirish chorasi, почить в бозе/dam olish (o'lim)*; o'zbek tilida siyosiy nutqlarda *oqilona boshqaruvda qiyinchiliklar*, diniy nutqlarda *Allohning huzuriga qaytmoq* kabi iboralar ham tantanali evfemizmlarga misol bo'ladi.

Eskirgan qatlarga taalluqli evfemizmlar ko'proq o'lim ifodasida uchradi. Bunday evfemik birliklar millat tarixi, urf-odatlar bilan bog'langanligini namoyon etadi. Masalan, *Tyburn tree, over the Jordan, cross the Styx, Елисейские поля, отправиться в лоно Авраама* ko'proq badiiy asarlarda, publisistik uslubida keng qo'llanadi.

Ingliz tilida oddiy so'zlashuv qatlamida *under the weather, let go, pass away* kabi evfemizmlar qo'llanilsa, rus tilida bunday evfemizmlarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: *попасть в неприятности, не в форме, в градусе, принять лишнего*. Bulardan, *попасть в неприятности/noqulay vaziyatga tushmoq* iborasi muammoga duch kelganlikni yumshoqroq tarzda ifodalash uchun ishlatiladi. O'zbek tiliga keladigan bo'lsak, *hovurdan tushmoq, cho'ntagim bo'shroq, ko'cha qonunlari bilan yashovchi, to'lacha* kabilar oddiy so'zlashuv tilida qo'llaniladigan evfemizmlar shu qatlamga mansub.

Xalqona tilda qo'llanadigan evfemizmlar homiladorlikni yengil, hazilomuz va obrazli usulda ifodalaydi. Masalan, ingliz tilida: *bun in the oven, up the duff, watermelon, swallow a watermelon*; rus tilida: *нашли в капусте, аист принес, залететь*; o'zbek tilida: *laylak tashlab ketgan, tarvuz yutgan, daladan topib olmoq, (lo'lidan) sotib olmoq, bacha topdi*.

Homiladorlikni ifodalovchi mazkur evfemizmlar yumoristik xarakterga ega bo'lib, ingliz tilidagi *bun in the oven* evfemizmi madaniy o'ziga xos bo'lib, rus yoki o'zbek tillarda uchramaydi. Rus tilidagi xalq ijodiga xos evfemizmlardan biri *нашли в капусте* bo'lib, bu rus madaniyati bilan bog'liq hisoblanadi. O'zbek tilida ham *bacha topdi, bo'shamoq* kabi evfemizmlar xalqona tilga xosdir. Bundan

tashqari, *yo'lni topolmay qoldi, kulala qilmoq, to'shakda, sodda lavh, novut bo'lmoq* kabi boshqa mavzularga xos evfemizmlar ham xalqona tilga xos hisoblanadi. Misol uchun, *yo'lni topolmay qoldi* evfemizmi xalq orasida ichkilikka nisbatan hazilomus munosabatni ifodalaydi.

Sleng so'zlar vositasida ifodalangan evfemizmlar yoshlarga xos ijodkorlik va hayotiy qarashlarini aks ettiradi. Bunday iboralar tilning norasmiy qatlamida keng tarqalgan bo'lib, ular muloqotni qiziqarli, dinamik va mazmunli qiladi. Ingliz tilidagi *croak, crash, bail, kick off, buy the farm, check out, rest in peace, a bit under par, sick as a dog, off-colour, three sheets to the wind, in between gigs, job-hunting* kabi evfemizmlar sleng tilga xos. Rus tilidagi evfemizmlardan *сдохнуть, слить, окочуриться, откинуться, отдать богу душу, уйти, не в своей тарелке, сломаться, подкашливать, в хлам, под шофе, напиться в доску, на веселе, в агоне, гонять, на кайфе, слётать, отдыхать от работы*. O'zbek tilida *o'chgan, zahar, tamtam, baba, "bosmachi", "hunar", oqsoqol, g'ilay, payini qirqmoq* kabi evfemizmlarni sleng tilga xos deyish mumkin.

XULOSA

1. Evfemizmlar tildagi muayyan tushunchalarni yumshoqroq yoki madaniy nuqtayi nazardan maqbul shaklda ifodalash vositasi bo'lib, ularning qo'llanilishida milliy mentalitet, diniy tasavvurlar va ijtimoiy odob-axloq me'yorlari asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi. Evfemizmlar lingvomadaniyat, madaniy subkodlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, chet tillarni o'rganish va tarjima jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Evfemizmlarning paydo bo'lishi stigmali semalar bilan bog'liq bo'lib, lingvomadaniy jihatdan tizimli tahlilni talab qiladi. To'plangan evfemik birliklar quyidagi asosiy tematik guruhlarni tashkil etadi: qo'rquv uyg'otuvchi, yashirin va sirli, inson fiziologik holati bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi va omadsizlikni ifodalovchi evfemik birliklar.

3. Evfemizmlar dinamik xususiyatga ega bo'lib, jamiyatdagi milliy-madaniy va ijtimoiy o'zgarishlarga mos ravishda rivojlanadi. Tadqiqotda evfemik birliklar mavzu jihatdan guruhlanib, ingliz, rus va o'zbek tillarida tematik guruhlarining nisbati aniqlandi. Tasnif jarayonida jami 1700 ga yaqin evfemik birlik tizimli o'rganilib, shundan 755 tasi ingliz tilida, 530 tasi rus tilida, 400 tasi o'zbek tilidagi evfemik birliklardir.

4. Qiyosiy tahlil natijasida evfemik birliklarning 4 yo'nalishda 17 ta nominativ guruhlar va ular tarkibida 62 ta mikroguruhlar shakllantirildi. Aniqlangan evfemistik birliklar uch tilli ideografik lug'at yaratish uchun muhim manba bo'ldi.

5. Evfemik birliklarning tizimli tahlilida ularning semantik, struktur, uslubiy va lingvomadaniy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Struktur jihatdan evfemizmlar bitta leksema yoki yaxlit birikma sifatida shakllanib, xususan, ingliz tilida 268 ta, rus tilida 163 ta, o'zbek tilida 122 ta evfemik birliklar bitta leksema sifatida shakllanganligi aniqlandi. Yaxlit birikma sifatida esa ingliz tilida 487 ta, rus tilida 367 ta, o'zbek tilida 278 ta evfemik birlik qayd etildi.

6. Evfemizmlar so'z yasashining turli usullari orqali hosil bo'ladi. Ingliz tilida konversiya, kompozitsiya, affiksatsiya va aralashma so'zlar keng tarqalgan

bo'lsa, rus va o'zbek tillarida, asosan, kompozitsiya va affiksatsiya unumdor usullar hisoblanadi.

7. Evfemizmlar ekspressiv xususiyatiga ko'ra metaforik va metonimik ko'chim, litota, meyozis, metalepsis, jonlantirish kabi uslubiy vositalar orqali shakllanadi. Zamonaviy tilda evfemik birliklarning yumor, tanqid, sarkazm va kinoya orqali voqelanishi kuzatiladi.

8. Evfemik birliklar lingvomadaniy ma'lumot tashuvchi vosita sifatida namoyon bo'lib, ba'zi holatlarda lakunar hodisalar kuzatiladi. Masalan, diniy va mifologik manbalarga asoslangan evfemizmlar (*отправляться в лоно Авраама, to strike the Lucifer's fire, asfalasofilinga ketmoq*), milliy urf-odatlarga bog'liq evfemizmlar (*to eat beans, ro'mol tashlamoq, mahsi kiymoq*), shuningdek, turli tilda tafakkur va dunyoqarash farqlari asosida shakllangan birliklar (*divorced amicably, не сошлись характерами, yulduzi yulduziga mos kelmadi*) aniqlangan.

9. Ingliz, rus va o'zbek tillarida evfemik birliklarning ekvivalent va analoglarini tanlashda milliy-madaniy xususiyatlarni inobatga olish kerak. Lakunar holatlarda evfemik birlikning mazmunini saqlash maqsadida uning milliy til me'yorlariga muvofiq ekvivalentini tanlash lozim. Masalan, *cross the River Jordan – оставить бранный мир – dunyoning qiyinchiligidan qutulmoq, to kick the bucket – дать дуба/сызпать в ящик – kulala qilmoq, lady of the night – дама полусвета – tun qirolichasi*.

10. Qiyoslanayotgan tillardagi evfemik birliklar adabiy va so'zlashuv til qatlamlariga oid bo'lib, xususan, tantanali, arxaik, xalqona va sleng subqatlamlarida shakllangan. Ayniqsa, sleng subqatлами tarkibidagi evfemizmlar o'lim, giyohvandlik, ichkilikbozlik, fohishabozlik, jinoyat va homiladorlik kabi mavzularda ko'proq namoyon bo'ladi.

11. Tantanalilik xususiyatiga ega evfemik birliklar siyosiy nutqlarda, diniy ma'ruzalarda va marosimlarda qo'llanib, uch tilda metaforik parafrasa shaklida namoyon bo'ladi. Xalqona tilga xos evfemizmlar esa xalq tarixi va madaniyati bilan bog'liq bo'lib, unda, asosan, tug'ilish, o'lim, turmush qurish va ajrim mavzulariga oid evfemik birliklar kuzatiladi.

**SCIENTIFIC COUNCIL FOR AWARDING SCIENTIFIC
DEGREES DSc DSc.03/30.12.2019.Phil.05.02 AT
FERGANA STATE UNIVERSITY**

FERGANA STATE UNIVERSITY

DUSHATOVA SHOKHSANAM BAKHTIYOR KIZI

**LINGUISTIC AND LINGUOCULTURAL STUDY OF EUPHEMISMS
(based on English, Russian, and Uzbek languages)**

10.00.06 – Comparative literary criticism, contrastive linguistics and translation studies

ABSTRACT
of dissertation of the doctor of philosophy (PhD) on PHILOLOGICAL sciences

The theme of doctoral (PhD) dissertation is registered by the Supreme Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under B2024.4.PhD/Fil5313.

The dissertation was conducted at Ferghana State University.

The dissertation abstract in three languages (Uzbek, English and Russian (Resume)) has been uploaded on the website (www.fdu.uz) of Scientific Council and on the website of «Ziynet» information-educational portal (www.ziynet.uz).

Scientific supervisor:

Khoshimova Nargis Abdullayevna
PhD in Philology, Associate Professor

Official opponents:

Sodikov Zokhid Yakubjanovich
Doctor of Philological Sciences, Professor

Gulyamova Shakhnoza Kahramonovna
Doctor of Philological Sciences, Associate Professor

Leading organization:

Andijan State Institute of Foreign Languages

The defense of the dissertation will be held at the meeting of Scientific Council DSc.03.30.12.2019.Fil.05.02 on awarding scientific degrees at Ferghana State University on "6" 09 2025, at 10:00 (Address: Fergana city, Burhoniddin Marghinoniy street, 105. Tel.: (99873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz).

The dissertation can be viewed at the Information-Resource Center of Ferghana State University (registered under number 561) Address: 100151, Fergana city, Murabbiylar street, 19. Tel.: (99873) 244-44-94.

The abstract of the dissertation was distributed on "22" 08 2025
(Registry record № 42 dated "22" 08 2025.)



G.Z.Rozikova
Chairperson of the Scientific Council on awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

M.T.Abdupattoyev
Secretary of the Scientific Council on awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

A.G.Sabirdinov
Chairman of the Scientific Seminar at the Scientific Council on awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

INTRODUCTION

(Abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD))

The relevance and necessity of the dissertation topic. In global linguistics, euphemisms are recognized as an important socio-cultural phenomenon, and the study of the intrinsic connection between language, human beings, and culture is considered a particularly significant issue. Euphemisms are linguistic units that are actively used from colloquial speech to the poetic and ceremonial layers of literary language, performing various functions are among the most widespread linguistic units. Euphemisms that arise as a result of the diffusion of concepts in society change along with the processes of social development, their scope of application expands, and the need for linguocultural analysis within the framework of linguistic research increases. From this point of view, the creation of classifications of euphemisms in the context of the interdependence of language and culture, their formation as a single system are of particular practical importance.

The study of euphemisms by linguists worldwide has broadened the scope of linguistic and linguocultural research, highlighting their role in reflecting national and cultural values not only from a theoretical, but also from a practical perspective. Euphemisms serve as expressions of each nation's identity, and their emergence in world languages provides insights into deeply rooted cultural values. Examining the semantic, structural, and linguistic-cultural aspects of euphemisms demands a systematic approach to their lexicographic representation. Consequently, the comparative study of euphemisms in different languages serves to clarify the specific aspects of the national-cultural values, socio-political life and historical processes of the people. Therefore, it serves as an important theoretical basis for the proliferation of scientific research aimed at studying euphemisms in linguistic and linguocultural aspects.

In the contemporary era, the reforms being implemented in our country are having a significant impact on the development of the Uzbek language. Therefore, conducting comparative studies of the Uzbek language with other languages – especially from a theoretical perspective – opens up opportunities to explore aspects that have not yet been fully examined in linguistics. Indeed, the approach that *“We view the development of the state language in connection with the advancement of the languages and cultures of other nations”* once again confirms the intrinsic link between language and culture, emphasizing the relevance of intercultural comparative research in modern linguistics¹. Language and culture are intricately interconnected. Euphemisms serve as a mirror of culture, reflecting it within language. Particularly, euphemisms expressed in vernacular speech reveal the collective consciousness of a people through their linguistic system, while their multifaceted nature in communication highlights the differences in human cognition across various nations. Therefore, the systematic analysis of

¹Mirziyoyev Sh.M. O'zbek tili – millat ma'naviyatining mustahkam poydevori. <https://president.uz>. – O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan (murojaat sanasi: 10.10.2024).

euphemisms, using a lexicographic approach, facilitates the creation of a dedicated corpus for these linguistic units.

In our country, enhancing the system of teaching foreign languages and preparing competitive, well-rounded specialists in higher education institutions is one of the priority tasks. Today, solving pressing issues in every field based on scientific achievements is of great importance. To this end, it is necessary to “strengthen ties with prestigious foreign universities, scientific, and innovation centers and further expand collaboration with them in the training of specialists”². Moreover, in an era of advanced science and innovation, it is essential not only to learn foreign languages but also to understand the culture of their speakers. This necessitates conducting comparative linguistic analyses and pursuing deeper research to foster a comprehensive understanding of languages and cultures.

The dissertation contributes to the implementation of the key tasks to a certain extent in the Presidential Decrees of the Republic of Uzbekistan PD-6084 “On Further Development of the Uzbek Language and Improvement of Language Policy, dated October 20, 2020; ” PD-60 “On further development of the Uzbek language and improvement of language policy in our country”, dated February 10, 2022; PR-5117 “On Measures to Bring the Activities of Promoting Foreign Language Learning in Uzbekistan to a New Level” dated May 19, 2021; the ideas put forward during the video conference on May 6, 2021, regarding the improvement of the system of teaching foreign languages, and the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan № 34 “On Additional Measures to Improve the Study of Foreign Languages”, dated January 19, 2022 along with other relevant regulatory documents.

Correspondence of the dissertation with the priorities in the development of science and technology of the republic of Uzbekistan. The dissertation has been carried out within the framework of the priority area of the development of science and technology in the Republic, titled “Development of an Informed Society and a Democratic State in Social, Legal, Economic, Cultural, and Spiritual-Educational Aspects, as well as the Advancement of an Innovative Economy.”

Scope of study of the problem. The study of euphemisms in global linguistics has a long-standing history, with numerous works dedicated to this topic in both international and Uzbek linguistics. Among English researchers, scholars such as H.Rawson, J.Lakoff, K.Allan, K.Burridge, D.Cameron, D.Crystal, L.Trask, J.Hughes, S.Pinker, J.Green, G.Leech, and D.Enright³ have contributed

²Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/5774> – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti (murojaat sanasi: 10.10.2022).

³Lakoff G. The Logic of Politeness; or, Minding Your P’s and Q’s. – Chicago: University of Chicago Press, 1973; Leech G.N. Principle of Pragmatics. – London: Longman Publishing Group, 1983; Enright D.J. Fair of Speech, the Use of Euphemism. – Oxford: Oxford University Press, 1986; Allan K. and Burridge K. Euphemism and Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon. – New York: Oxford University Press, 1991; Cameron D. Verbal Hygiene. – London: Routledge, 1995; Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1995; Rawson H.A. Dictionary of Euphemisms and Other Doubletalk. – Edison N.J.: Castle Books, 2002; Truss L. Talk to the Hand: The Utter Bloody Rudeness of Everyday Life.

significantly to the field. H. Rawson examined euphemisms as both linguistic and social phenomena, while J. Lakoff explored their psychological significance in addition to their linguistic aspects. K. Allan demonstrated that euphemisms are not solely expressed through lexical units but also depend on contextual interpretation. D. Cameron viewed euphemisms not only as a means of softening communication but also as a tool for reflecting equality in society. S. Pinker introduced the concept of the “euphemistic treadmill”, analyzing the continuous renewal of euphemisms from a psycholinguistic perspective—an aspect often overlooked in previous studies.

In Russian linguistics, scholars such as B. Larin, R. Budagov, A. Reformatzky, L. Bulakhovsky, V. Donskoy, L. Artyushkina, T. Bushuyeva, A. Katsev, D. Zelenin, and Y. Senichkina⁴ have conducted research on euphemisms, with two primary approaches emerging in their studies. The first approach defines euphemisms in a narrow sense, considering them as replacements for taboo words and phrases. R. Budagov, B. Larin, A. Reformatzky, and V. Donskoy are representatives of this perspective. Notably, V. Donskoy argued that euphemisms arise as a direct consequence of taboos, asserting that if taboos did not exist, there would be no need for their linguistic counterparts—euphemisms. The second approach adopts a broader interpretation of euphemisms, linking them to socially accepted moral norms. For instance, A. Katsev considers euphemisms in a broad sense, associating them with ethical standards in society.

